

Ne'matova Nasiba Sharobiddin qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Psixologiya fakulteti Yoshlar psixologiyasi yo'nalishi 320_21-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda o'smirlar psixologiyasida uchrayotgan muammolar va ularni hal qilish yo'llari, shuningdek, o'smirlarning psixologik xususiyatlari, ularning biologik va jismoniy rivojlanishi, o'z joniga qasd qilish holatlari tahlil qilinadi.*

Annotation: *This article analyzes the problems encountered in the psychology of adolescents today and their solutions, as well as the psychological characteristics of adolescents, their biological and physical development, cases of suicide.*

Kalit so'zlar: *O'smir, psixologiya, suistid, xulq-atvor, fiziologik rivojlanish, jismoniy rivojlanish.*

Keywords: *adolescent, psychology, suicidality, behavior, physiological development, physical development.*

Kirish

O'smirlik davrida bolalarda ham fiziologik, ham psixologik jihatdan o'zgarishlar bo'ladi. 11 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davr aynan o'smirlik davri hisoblanadi. Bu davrda u bola ham emas, katta ham emas, aksincha u bolalikdan kattalikka o'tayotgan shaxs hisoblanadi.

O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislatlar, jinsiy hayotga taalluqli masalalarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bular ta'sirida o'smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan munosabati o'zgaradi. Ba'zan unda noto'g'ri tasavvur va yanglish fikrlar paydo bo'ladi. O'smirlik davri shuning uchun ham "qiyin", "murakkab", "muhim" davr hisoblanadi. Ota-onalar yoki bolaning vasiyi hamda yaxshi tajribaga ega bo'lmagan pedagoglar bu davrni qiyin deb hisoblashadi.

O'smirlik davri o'zining taqlidchanligi, hissiyotga beriluvchanligi, tantiligi, mardligi, hamda o'zining "Men" ini ustun turishi bilan ajralib turadi. Bu o'smirlarga xos bo'lgan xususiyatdir. Shuning uchun ham bu davrda o'smirlarga alohida e'tibor berish kerak. Bu yoshda o'smir rivojida ko'plab o'zgarishlar bo'ladi. U ham fiziologik, ham biologik, ham psixologik jihatdan rivojlanadi.

Fiziologik rivojlanish deganda uning jinsiy yetilishi, biologik rivojlanishda esa tanadagi a'zolar rivojlanadi, o'sadi, hujayra va organizm qaytadan shakllana boshlaydi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liq. O'smirda psixik jarayonlar o'zgarishi bilan uning aqliy xususiyati ham o'zgaradi. Unda tashqi olamdan olayotgan axborotga nisbatan qoniqmaslik hissi yuzaga kela boshlaydi. Shu bois u injiq, tanti, erka, asabiy, o'zinikini ma'qullaydigan bo'lib qoladi. Hech kimning gapiga quloq solmaydi. Aynan mana shu paytda ko'plab ota-onalar xatoga yo'l qo'yadilar. Bolaga qo'l ko'tarishadi, uning g'ururiga, nafsoniyatiga tegaydigan gaplardan aytishadi. Agar u o'smir emas bola bo'lganida ota-onasidan qo'rqqani uchun nima deyishsa "ho'p" deyishardi. Katta bo'lganida esa o'zining xatosini o'zi tushunib yetib, ota-onasidan uzur ham so'rardi. Lekin u o'smir, hech

narsaga tushunmaydi, gapga ham quloq solmaydi. Xo'sh, unda ota-onalar ,atrofidagi insonlar nima qilishi kerak? Unga qanday ta'sir ko'rsatsa yaxshi bo'ladi? Mana shu kabi savollar kundalik hayotimizda juda ko'p uchraydi. Mening fikrimcha, avvalo bolaga qo'l ko'tarish juda noto'g'ri. Chunki bu paytda undagi "Men" juda yuqori bo'ladi, Jahli sabab turli xil jinoyatga qo'l o'rib qo'yishi mumkin. Ana shunday salbiy holatlarning oldini olish uchun, avvalo, bola bilan ota-onalar yaxshi, samimiy, katta insonga muomila qilayotgandek gaplashishi darkor. Yoki bo'lmasam, uni biron-bir mehnatga jalb qilish lozim. Bolaning bo'sh vaqti qanchalik kam bo'lsa, salbiy holatlar ham shunchalik kam bo'ladi. Misol uchun fan darsliklaridan tashqari, ya'ni repititrga berishdan tashqari ustaga shogird qilib berish yoki tikuvchiga shogird qilish ham ancha foydali. Shuning uchun ham farzand o'stirayotgan har bir ota-ona bolaning o'sishi to'g'risida, uning o'ziga xos xususiyati haqida zarur tushunchaga ega bo'lishi darkor.

O'smirlik davrida qizlar va o'g'il bolalarda jismoniy o'zgarishlar ham bo'ladi. Bu davrda dastlab qizlar o'g'il bolalarga nisbatan tezroq o'sa boshlaydi. 14-15 yoshda esa o'g'il bolalar tez o'sib, qizlarga tenglashib olishadi. Shu sababli qizlar 14 yoshda, o'g'il bolalar 15 yoshda balog'atga yetishadi. O'smirlik davrida qiz bolalarning bo'yi 15-20 sm, o'g'il bolalarniki esa 25-30 sm ga o'sadi. Bundan tashqari o'smirlik davrida bo'g'izda ham o'zgarish ro'y beradi: ovoz paylari uzayadi va ko'payadi. Shuning uchun ham o'smirlarning , ayniqsa o'g'il bolalarning ovozi yo'g'on va past bo'lib qoladi.

O'smirlik davrida qo'zg'alish jarayoni tormozlanish jarayoniga nisbatan kuchliroq bo'ladi. O'smirlarning o'zini idora qila olmasligi, ta'sirchanligi, qiziqish va havaslarining beqarorligi, faol faoliyatdan passiv faoliyatga o'tib qolishining ham sababi, balki shundadir. Bundan tashqari jinsiy balog'at natijasida ham o'smirlarda o'ziga xos psixik holat yuzaga keladi. Shu sababli, bu davrda maktab va oilada tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, o'smirning fiziologik xususiyati hisobga olinmasa, uning xulq-atvorida salbiy sifatlar ortadi va keyingi hayoti davomida ham o'zgartirish juda ham qiyinlashadi.

Bugungi kunda o'smirlar o'rtasida suistid holatlar ham ko'plab uchramoqda. Xo'sh, suistid holatga nima sabab bo'ladi? Suistid o'zi nima? Suistid lotincha so'z bo'lib, "sui"-men, "caedere"-o'zimni o'ldiraman so'zlaridan olingan. Suistid-ongli ravishda o'z joniga qasd qilish degan ma'noni anglatadi. Hamma narsa, avvalo oiladan boshlanadi. Oiladagi ijtimoiy muhit yaxshi bo'lsa, bolada ham ijobiy sifatlar ko'payadi. Bolaga eng boshidan to'g'ri tarbiya berish juda muhimdir. Shuning uchun maktablar ham bolaning kelajagida muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida: "Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzanarimizning bugun qanday bilim va tarbiya olishiga bog'liq", deb ta'kidlaganlar. Aynan shu sababli bola tarbiyasi bo'yicha oila va maktabda ma'suliyat yuqori.

O'zi biz nima uchun o'smirlar o'rtasida sodir bo'layotgan o'z joniga qasd qilish holatlarini tahlil qilmoqdamiz? Tabiiyki, buni o'ziga yarasha sabablari bor.

Birinchi sabab, xulq-atvordagi o'zgarish, ya'ni faol faoliyatdan passiv faoliyatga o'tishi. Hayotiy pozitsiyaning susayishiga ijtimoiy muhitga noto'g'ri moslashish, oilaviy nizolarning ko'p bo'lishi, shaxslar bilan ijtimoiy aloqaga kirisha olmasligi sabab bo'lishi mumkin.

Ikkinchi sababi o'smirning dunyoqarashi bilan, ya'ni psixik holati bilan bog'liq. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar ham o'smir ongiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari agressiv xulq-atvor ham o'smirning "ichki dunyosi" ga ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, agressiv xulq-atvorni o'rganish, uni tahlil qilish orqali psixologlar o'smirdagi suistidga moyilligini aniqlashi mumkin.

Xulosa

Demak, o'smirlik davri bolalikdan kattalikka o'tish davri hisoblanar ekan. O'smir bu davrda nafaqat jismoniy, balki fiziologik va psixologik jihatdan ham rivojlanadi. Nafaqat psixolog, balki ota-onalar ham o'smir bilan muomila qilayotganda o'ta ehtiyotkor bo'lishi kerak. Chunki ortiqcha aytilgan gap yoki harakat o'smirning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'smir bu davrda bebosh, tanti, jizzaki, gap ko'tarmas, asabiy, jahli tez bo'lib qoladi. Shundan kelib chiqqan holda o'smir bilan do'stona gaplashish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlik davri qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan yengilroq o'tadi. Bunga sabab, qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda og'ir-bosiqroq, ular gap nima haqida ketayotganligini, vaziyat qanday ekanligini o'g'il bolalarga nisbatan tezroq anglaydilar.

Aziz ota-onalar hamda ustozlar! Yurtimiz kelajagi voyaga yetayotgan o'smir yigit-qizlarga bog'liq ekan, ularning ta'lim-tarbiyasiga hech qachon befarq bo'lmaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008 y.
2. Shirin Mustafayeva. "O'smir psixologiyasi: biz bilmagan jihatlar", Farg'ona, "Farg'ona" nashriyoti, 2015 yil, 64 bet.
3. <https://cyberleninka.ru>